

XADICHA SULAYMONOVA YOSH HUQUQSHUNOSLAR NIGOHIDA.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8331882>

Muxiddinova Gulnoza Muxiddin qizi

Toshkent davlat yuridek universiteti

qoshidagi akademik litsey o'quvchisi

+998886162088

Annotatsiya

Maqolada, bizning millatga tegishli bo'lgan eng yetuk ayol huquqshunosi, O'zbekiston SSR davrida amalga oshirgan ishlari, bizning madaniyatga va ma'naviyatimizga qo'shgan ulkan hissalari, asli qayerlarda tahsil olgan, qanday unvonlarga sazovor bo'lganlikli haqida so'z yurutilgan. Ushbu maqola, ularning 110 yilligiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar

Xadicha Sulaymonova(keyingi o'rinnlarda Sulaymonova.X.), huquqshunos, fan arbobi, yuridik fanlar doktori, professor, akademik, aspirant, assistent, dotsent, mudir, rector, dekan, Adliya vaziri, Adliya komissiya raisi, Oliy sud raisi, tashabbuskor, muzey.

Annotation

The article talks about the most accomplished female lawyer of our nation, her work during the Uzbek SSR, her great contributions to our culture and spirituality, where she originally studied, and what titles she received . This article is dedicated to his 110th anniversary.

Key words

Khadicha Sulaimanova (hereinafter Sulaimanova. Kh.), lawyer, scientist, doctor of legal sciences, professor, academician, graduate student, assistant professor, director, rector, dean, Minister of Justice, Chairman of the Justice Commission, Chairman of the Supreme Court, initiator, museum.

Аннотация

В статье рассказывается о самой опытной женщине-юристе нашей страны, ее работе в период Узбекской ССР, ее большом вкладе в нашу культуру и духовность, где она изначально училась и какие звания получила . Эта статья посвящена его 110-летию.

Ключевые слова

Хадича Сулайманова (далее Сулайманова. X.), юрист, ученый, доктор юридических наук, профессор, академик, аспирант, доцент, директор, ректор, декан, министр юстиции, председатель Комиссии юстиции, председатель Верховный суд, инициатор, музей.

Huquqshunoslik shunday bir kasbki, inson bu kasbda har tomonlama yetuk fikrli bo'la olishi lozim, u kim bo'l shidan qat'iy nazar, adolatli shaxs sifatida yetilishi darkor. Yosh huquqshunsmi yoki u keksa, qanday bo'lmasin u kasbining yetuk namoyondasi bo'lishi kerakligini unutmasligi shart.



1-rasm

Huquq gulshanida yetilgan ayol huquqshunoslardan biri Sulaymonova.X(1-rasm) edilar, ular shunday ishlarni amalga oshirganlarki, O'zbekiston SSR da ularning o'rni beqiyos bo'lgan. Hozirda huquqshunoslik tarixida o'chmas iz qoldirgan Sulaymonova.X nomiga atalgan muzey va ekspertiza institutlari mavjudligi barchamizni quvontiradi. Ular taniqli o'zbek ayollaridan bo'lgan yetuk huquqshunos, taniqli olma, davlat va jamoat arbobi edilar. 1991-yilning yanvar oyida, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Falsafa va Huquq institutida ilk marotaba Sulaymonova.X. ning xotira kechasi o'tkazilgan edi. 2023-yilning bahor oylarida, ularning xotirasiga bag'ishlangan maqolalar tanlovi ham bejizga tashkil etilmadi. Vaholanki, biz yosh huquqshunoslardan uning bajargan barcha amallarini har yili, har yilidan ko'ra ko'proq xotirlashimizga imkon yaratildi. Sulaymonova.X. hayotlarida ko'p bilimlarni egasiga aylandilar, ular ilm yo'lida qoqildilar, yiqildilar ammo hech qachon taslim bo'l madilar, ular irodali ayol sifatida o'rnak bo'la oladiga shaxs edilar. Har yilgi, ularga bag'ishlangan xotira kechalarida ularga yaqin bo'lgan kasbdoshlari va do'stlari ham tashrif buyurar edi. Va albatta, shuni unutmasligimiz lozimki, Sulaymonova.X. ning xotirasi unutilmas bo'lganligi uchun, bizning I prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Kamirovga bitmas va tunganmas sharaflar bo'lsin, ularning sharofati ila, ushbu ayol huquqshunosining xotirasi hali hamon yashab kelmoqda.

Sulaymonova.X. ning oila a'zolaridan otasi ham ilmi insonlardan edi. Sulaymon Kelginboyev, Turkmaniston jug'rofiyasini yaxshi o'zlashtirgan, millat

a'zolarini yaxshi farqlay oladigan, turkman, qozoq, qirg'iz va tojik tillarini bilibgina qolmasdan, rus tilida ham ravon so'zlashuvchi inson bo'gan, balki, shuning uchun bizning ayol huquqshunosimiz ham juda ilmli va qobilyatli bo'lganlar. Ularning akasi va bir opasi bor edi. Akasining ismi Yusufjon, opasining ismi Mo'tabar bo'lgan. 1913-yilda Sulaymonova.X. ning otasi 3-farzand kutayotgan edi, u karvonsaroyda xo'jayinining deyarli o'ng qo'liga aylangan, sifatli hizmat ko'rsatuvchi va eng asosiy hizmat ko'rsatuvchi edi. Bizning huquqshunosimiz ham dunyoga kelganlarida, otalari ish bilan band bo'lib qolganlarida, ularning yaqin do'stlari rafiqalarini o'z xonadonlarida parvarishladilar. Ana shu 1913-yil 3-iyun sanasida Andijonda Sulaymonova.X. dunyoga keldilar. Ularning tug'ulishini eshitgan otalari ham behad hursadn bo'lgan, va do'stlariga tayinlagan holda, tug'ulgan farzandlari uchun elga osh berdilar.

Sulaymonova.X. hayot chog'larida ko'p saboqlarni oldilar, ilmli va yetuk edilar. 1935-yilda, O'zbekiston SSR MIK huzuridagi sovet qurilish va huquq insitutini tamomlaganlar. 1939-41 yillarda Moskva yuridik institutini aspirant sifatida tehsil oldilar. 1951-yilda ega bo'lgan unvonlaridan yuridik fanlar doktorligi edi, va keyingi yilda professorlik unvoniga ega bo'lganlar. 2 yildan so'ng O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi nomini olganlar. 1941-1954 yillarda Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasi assistenti, dotsenti, so'ng mudiri, shu yillardan so'ng yana bir yil mobaynida ushbu institutning rektori sifatida faoliyat olib borganlar. 1955-1956 yillarda O'rta Osiyo universitetining yuridik fakulteti decani bo'lganlar, shu yillar oxirida O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi unvonini qo'lga kiritganlar. 1956-1959 yillar oraliq'ida O'zSSR adliya vaziri bo'lib ish yurutganlar. 1959-1964 yillarda O'zSSR Ministrlar Soveta huzuridagi Adliya komissiyasi raisi edilar. Shu yillar so'ngidan O'zSSR Oliy sudi raisi bo'lganlar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutini, Respublika Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutini tashkil etishda bo'lgan eng nufuzli tashabbuskorlaridan bir bo'lganlar. Ular ayollarni huquqlarini himoya qiluvchi eng yuqori martabali shaxsga aylangan edilar, shuning uchun ham, ana shu yillardan beri ayollarga keng ko'lamda e'tiborli ishlar amalga oshirilib kelinadi. Ularning huquq borasidagi bilimlari va salohiyatlari bizning millatda, butun Respublikada, O'rta osiyoda va yana bir necha davlatlarda yuqori cho'qillarni egallab keladi.



2-rasm

Shuni aytish kerakki, ularning nomlariga, Respublikamiz hududida, Toshkent ko'chalaridan biriga, hozirda faoliyat yuritib borayotgan Respublika sud ekspertiza matkaziga(2-rasm) ularning nomi berilgan bo'lib, Toshkent yuridik universitetida ularning nomiga bag'ishlangan muzey ham tashkil etilgan.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Xadicha Sulaymonova biz yosh huquqshunoslar tanigan eng yetuk ayol huquqshunos bo'lib qoladilar, yuqorida keltirib o'tilgan uning hayot yo'llaridagi muvaffaqiyatlari tahsinga loyiq ekanligini biz anglab yetganmiz. Ulardek biz ham kasbimizning yetuk namoyondasi bo'lish uchun tinmay va toliqmay mehnat qilishga harakat qilamiz. Ularning huquq sohasiga qo'shgan xissalari o'laroq, biz ulardan o'rnak olgan holda, yanada yuksak marraralarga erishishni ko'zlaganmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xadicha Sulaymonova huquqshunos olma, davlat arbobi. Hakimov.M. va boshq.1993. https://drive.google.com/file/d/1M3s0hZpKaSIE38LiRkJRCJ72s0UP_fi/view
2. Xadicha Sulaymonova. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xadicha_Sulaymonova

3. Xadicha Sulaymonova 1913-1965. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/xadicha-sulaymonova-1913-1965>

4. Hukumat qarori bilan Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyati takomillashtiriladi <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/24/sud-ekspertizasi/>